Bugungi kunda jahon miqyosida demografik jarayonlarning jadallashuvi davlatning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish, xususan, yoshlarning mehnat qilish va band bo'lish huquqlarini ta'minlashning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga kelib jahonda yoshlar sonining 7 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Bu esa ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda yoshlarni munosib mehnat bilan ta'minlash masalalarining ahamiyatini yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan BMTning “Youth 2030” strategiyasida ham yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. O'zbekistondagi demografik holat ham yoshlar bandligini davlat ijtimoiy funksiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tizimli tashkil etish zaruratini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9,6 mln nafardan ortiq bo'lib, mamlakat aholisining 25,7 foizini tashkil etadi. Ayni vaqtda har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yosh kadr kirib kelmoqda. Demografik prognozlarga ko'ra, 2030-yilga borib ushbu ko'rsatkich 1 mln nafarga yaqinlashishi mumkin. Mazkur holat yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga tayyorlash va kasbiy malakasini oshirish mexanizmini mehnat bozorining amaldagi ehtiyojlariga muvofiq takomillashtirishni talab etadi.

Shu bois Prezidentimizning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida quyidagi fikrlar ilgari surildi: “Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat

bozori arxitekturasini yaratish – kelgusi yil uchun dasturimizning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi. Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida – kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur (President of the Republic of Uzbekistan, 2025)”.

Darhaqiqat, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash davlat boshqaruvining muhim yo'nalishi bo'lib, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishni talab etadi. Mazkur jarayonda ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha davlat va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mehnat bozoriga oid rasmiy statistik ma'lumotlar so'nggi yillarda umumiy ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbekistonda ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo'lmagan shaxslar soni 2021-yilda 1 441,8 ming nafar, 2022-yilda 1 332,7 ming, 2023-yilda 1 024,1 ming, 2024-yilda 836,0 ming, 2025-yilda esa 744,9 ming nafarni tashkil etgan. Demak, 2021–2025-yillar davomida mazkur ko'rsatkich 48,3 foizga qisqargan. Biroq umumiy ijobiy o'zgarishlarga qaramay, hududlar o'rtasida sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2024-yilda ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar soni Farg'ona viloyatida 100,5 ming, Samarqand viloyatida 86,4 ming, Qashqadaryo viloyatida 80,9 ming nafarni tashkil etgan (National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, 2026).

Ushbu statistik ko'rsatkichlar mehnat bozoriga holat hududlar bo'yicha bir xil emasligini ko'rsatadi. Hududlarning demografik tarkibi,

iqtisodiy ixtisoslashuvi, mavjud ish o'rinlari va ish beruvchilarning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojidagi farqlar yoshlar bandligini ta'minlashda yagona yondashuv bilan cheklanmasdan, har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan mexanizmlarni qo'llashni talab etadi. Shu bois, har bir hududning mehnat bozori holati va kadrlarga bo'lgan amaldagi ehtiyojidan kelib chiqib maxsus "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, yoshlarni kasbga tayyorlash dasturlarini mahalliy ish beruvchilar ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish hamda ularning ijrosini aniq natijaviy ko'rsatkichlar asosida baholash yoshlar bandligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar barcha hududlarda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining hayot darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan. Jumladan, "Hududlarni kompleks rivojlantirish" dasturi doirasida infratuzilma obyektlarini yangilash, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qishloq xo'jaligiga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish kabi muhim tashabbuslar izchil amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda yoshlar bandligini ta'minlash masalasi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar oqimining ko'payishi, yangi kasb va ko'nikmalarga bo'lgan talabning o'sishi hamda hududlar iqtisodiy salohiyatining turlicha ekanligi bandlik siyosatini hududiy xususiyatlarga mos holda tashkil etishni taqozo etmoqda.

Shu asnosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvarda qabul qilingan "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatda mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush darajasida

sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni yo'lga qo'yish maqsadida hududlarni sektorlarga bo'lib ishsizlikning oldini olish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Misol uchun, sektorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini yanada oshirish maqsadida sektorlarning "tuman (shahar) – viloyat – respublika" tamoyili asosida ularga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish hamda faoliyatini nazorat qilish bo'yicha hokimliklar, prokuratura, ichki ishlar va soliq idoralarida vertikal boshqaruv tizimini joriy etish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Har bir hududda aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida hududiy va respublika darajasida "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish hamda ularning amaliy ijrosini ta'minlash, shuningdek, mazkur hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha mexanizmlarni belgilash qayd etildi.

OECD tadqiqotlarida yoshlar bandligini ta'minlashda "place based policy", ya'ni hududiy xususiyatlarga asoslangan siyosat muhimligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, har bir hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi va mehnat bozori tarkibi hisobga olinmasa, bandlik dasturlari kutilgan natijani bermaydi (OECD, 2016). Ayni damda O'zbekistonda demografik tarkibda yoshlar ulushi yuqori bo'lib, mehnat bozoriga har yili katta miqdorda yangi ishchi kuchi kirib kelmoqda. Shu bilan birga, hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya oqimi, sanoatlashuv ko'rsatkichi va xizmatlar sektori hajmi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Natijada yoshlar bandligi masalasi respublika miqyosida yagona yondashuv asosida emas, balki hududiy ixtisoslashuv va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda hal etilishi lozim bo'lgan kompleks muammoga aylanmoqda.

Xususan, ayrim hududlarda sanoat, turizm, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi va axborot texnologiyalari yo'nalishlari jadal rivojlanmoqda. Biroq mazkur dasturlar doirasida yoshlar bandligini hududiy mehnat bozori ehtiyojlari asosida tizimli rejalashtirish mexanizmi yetarli darajada shakllanmagan. Amaldagi dasturlar umumiy xarakterga ega bo'lib, ko'plab hududlarda yoshlar bandligini ta'minlash mexanizmlari mahalliy iqtisodiy salohiyat, demografik tarkib va talab yuqori bo'lgan sohalar bilan yetarlicha uyg'unlashtirilmagan. Natijada yoshlar o'rtasida ishsizlik dara-

jasi, kasbiy nomutanosiblik va malaka yetishmovchiligi muammolari saqlanib qolmoqda.

Mehnat bozori iqtisodchilari Bell va Blanchflower (2011) yoshlar ishsizligi masalasini alohida ijtimoiy-iqtisodiy xavf sifatida baholaydi. Ularning fikricha, yoshlar ishsizligi uzoq muddatli salbiy oqibatlariga – daromadning pasayishi, kasbiy ko'nikmalarning yo'qolishi va ijtimoiy integratsiyaning sustlashishiga olib keladi. Olimlar yoshlar bandligi siyosatini umumiy bandlik siyosatidan alohida ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Shu sabab hududiy mehnat bozori xususiyatlarini inobatga olgan holda yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "yo'l xaritalari" modelini ishlab chiqish, uning amaliy samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot doirasida yoshlar bandligini hududiy ixtisoslashuv asosida rejalashtirish modeli ishlab chiqiladi, "yo'l xaritasi" tushunchasi yoshlar bandligini oshirishning strategik-amaliy instrumenti sifatida tizimlashtiriladi, hududiy iqtisodiy salohiyat va yoshlar bandligi o'rtasidagi bog'liqlik tahliliy ko'rsatkichlar asosida dalillanadi, mahalliy mehnat bozori ehtiyojlariga mos kasb-hunar tayyorgarligi modelining konseptual asoslari taklif etiladi.

Tadqiqot doirasida barcha huquqiy fanlar uchun muhim bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determenizm prinsiplari, xronologik uslub, qiyoсий tahlil, formal yuridik, induksiya va deduksiya va boshqa ilmiy metodlardan foydalanildi.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 196-son qarori asosida G'ijduvon, Urgut, Qo'qon, Hazorasp kabi shahar, tumanlarda bir qator samarali iqtisodiy o'zgarishlar amalga oshirildi hamda shu kabi rivojlangan shaharlar tajribasidan boshqa infratuzilmaga ega shahar va tumanlar uchun "yo'l xarita"si tuzilishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martda qabul qilingan "Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-sonli Farmoni asosida hududlardagi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatini yanada takomillashtirish

chora-tadbirlarini amalga oshirish boshlandi. Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari samaradorligini oshirish uchun bir qator ko'ratkichlar belgilandi. Shu tufayli bir qator hududlarda, jumladan, Samarqand viloyatida "Nurobod texnoparki", Andijonda "Andijon texnopark" maxsus sanoat zonasi tashkil etildi.

Shu bilan birga, ko'plab normativ hujjatlar umumiy xarakterga ega bo'lib, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va mehnat bozorini rivojlangan hududlar tajribasi asosida o'stirishga qaratilgan, lekin yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlaridan, ulardagi demografik ko'rsatkichlar hamda hududning ichki resurslarini inobatga olgan holda yondashilmagan. Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen (1999) "imkoniyatlar yondashuvi" (capability approach) nazariyasida yoshlar bandligini nafaqat ish o'rni bilan ta'minlash, balki inson kapitalini rivojlantirish jarayoni sifatida ko'radi. Uning fikricha, kasbiy ta'lim va malaka oshirish yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlaydi. Shu sababli har bir viloyat, tuman va shahar kesimida yoshlar bandligi bo'yicha alohida "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Buxoro viloyati kadrlar taqsimoti ichki imkoniyatlaridan kelib chiqsak, mazkur viloyatda, ayniqsa, oliy ma'lumotli yoshlar mutaxassilar o'zlarining mehnat faoliyatini ta'lim sohasi bilan boshlamoqda (maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida). Viloyatda yoshlar orasida pedagogika yo'nalishiga qiziqish yuqoriligini ko'rish mumkin.

Boshqa viloyatlarda ham daromadli sohalari mavjud. Mahalliy mehnat bozorini tahlil qilish va yoshlar uchun talab yuqori bo'lgan sohalarni aniqlab, shu yo'nalishda o'qitish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda ta'lim muassasalarini tamomlab, mehnat bozoriga kirib kelayotgan 21 860 nafar yoshlar bandligini ta'minlash dasturini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Shunga qaramay, Buxoro viloyatida ham yoshlar bandligini ta'minlash uchun ta'limdan tashqari yo'nalishlarda, masalan, turizm, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va oilaviy tadbirkorlik sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari ham mavjud.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida – qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik, chorvachilik;

Samarqand va Farg'ona viloyatlarida – turizm, ipakchilik, hunarmandchilik; Toshkent shahrida – axborot texnologiyalari, startaplar va xizmat ko'rsatish sohasi; Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida – konchilik va sanoat tarmoqlarida imkoniyati yuqori.

Ushbu ixtisoslikni viloyat tarkibidagi tuman, shaharlar miqyosida ko'rib chiqishimiz mumkin:

Namangan viloyati Chust tumani hamda Farg'ona viloyati Marg'ilon shahri – hunarmandchilik, Qo'qon shahri – oilaviy tadbirkorlik, Buxoro viloyati G'ijduvon tumani, Samarqand viloyati Urgut shahrida – tadbirkorlik sohasi keng rivojlangan.

Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasiga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, Yevropa Ittifoqida yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha eng samarali mexanizmlardan biri sifatida Reinforced Youth Guarantee dasturi joriy etilgan. Mazkur yondashuvga ko'ra, a'zo davlatlar 25 yoshgacha bo'lgan har bir yoshga ishsiz qolganidan keyin 4 oy ichida ish, ta'lim, amaliyot yoki stajirovka taklifini berish majburiyatini oladi (European Commission, 2020). Dastur doirasida eng muhim jihat shundaki, har bir davlat tomonidan alohida implementatsiya rejasi ishlab chiqiladi. Ushbu rejada vakolatli organlar, aniq muddat, moliyalashtirish manbalari hamda hamkor tashkilotlar belgilab beriladi (European Social Fund, 2025, p. 45).

Mazkur tizimning asosiy ustunligi – yoshlar ishsizligi ko'pincha mahalliy darajadagi muammo ekanligini e'tirof etgan holda mahalliy hokimiyat organlari va hududiy hamkorlarning rolini kuchaytirishga qaratilganidadir (OECD, 2014, p. 18). Bu esa hududiy mehnat bozori xususiyatlarini inobatga olib, moslashuvchan bandlik siyosatini yuritish imkonini beradi.

Italiyada yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash siyosati doirasida hududiy yondashuv keng qo'llaniladi. Xususan, Youth Employment tashabbusi doirasida har bir region o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojidan kelib chiqqan holda mustaqil implementatsiya rejalarini ishlab chiqadi (Ministry of Labour and Social Policies of Italy, 2019, p. 7). Mazkur yondashuv umumiy milliy siyosat talablarini saqlagan holda hududiy moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Bu tajriba aynan "har bir hududga mos "yo'l xaritasi" ishlab chiqish g'oyasiga to'liq mos keladi. Ya'ni markaziy darajada umumiy qoidalar belgilanadi, ammo ularni amalga oshirish mexa-

nizmlari regionlarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab shakllantiriladi (Eurofound, 2007). Buyuk Britaniyada yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash maqsadida katta hajmdagi moliyaviy paketlar ajratilib, ehtiyoj yuqori bo'lgan hududlarda bosqichma-bosqich "Jobs Guarantee" dasturini joriy etish rejalashtirilgan (London Councils, 2024). Mazkur dastur 2026-yildan boshlab sinov tariqasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, dastlab mehnat bozori eng murakkab hududlarni qamrab oladi. Ushbu modelning asosiy afzalligi shundaki, yoshlar bandligini ta'minlash choralari hududlar kesimida bosqichma-bosqich kuchaytirib boriladi, resurslar esa ehtiyoj darajasi eng yuqori bo'lgan hududlarga yo'naltiriladi (Institute for Employment Studies, 2026). Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham mintaqaviy tafovutlarni hisobga olgan holda "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishda muhim namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yaponiyada yoshlar bandligini ta'minlash tizimi hududiy xizmatlar tarmog'i asosida yo'lga qo'yilgan. 2006-yildan boshlab mamlakatda yoshlar, xususan, NEET toifasiga mansub (ta'limda, bandlikda va kasbiy tayyorgarlikda bo'lmagan) yoshlar bilan ishlash uchun Regional Youth Support Stations markazi tashkil etilgan (Japan Institute for Labour Policy and Training, 2022, p. 14). Shuningdek, bitiruvchilar va ish izlayotgan yoshlar uchun ixtisoslashgan Hello Work bandlik bo'limi faoliyat yuritadi. Mazkur tizim quyidagi zanjir asosida ishlaydi: hududiy xizmat ko'rsatish → kasbiy yo'naltirish → o'qitish → ishga joylashtirish.

Bu tajriba yoshlar bandligini ta'minlashda markazlashgan yondashuv bilan bir qatorda hududiy infratuzilmaning muhimligini ko'rsatib beradi.

Xitoy Xalq Respublikasida yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash tizimi asosan mahalliy hukumatlarning faol ishtirokiga tayangan holda tashkil etilgan. Mamlakatda yoshlar bandligini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar paketida quyidagilar mavjud (State Council of the People's Republic of China, 2023):

- ish beruvchilarga subsidiya berish;
- kasb-hunar ta'limiga kirishni kengaytirish;
- yoshlarni qayta tayyorlash dasturlarini moliyalashtirish;
- stajirovka va vaqtinchalik bandlik dasturlarini rivojlantirish kabi mexanizmlar nazarda tutilgan.

Eng muhim jihati shundaki, ushbu choralarni amalga oshirishda mahalliy hukumatlar asosiy mas'ul subyekt sifatida belgilangan. Bu esa hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashuvchan siyosat yuritish imkonini beradi (China Development Research Foundation, 2022).

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yoshlar bandligini ta'minlash uchun aynan shu sohalarga mos hududiy o'quv dasturlari ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Shu orqali mehnat bozori talablariga mos malakali kadrlar yetishtirish imkoniyati kengayadi. Buyuk Britaniya, Xitoy, Yaponiyada hududlar kesimida rivojlanish takomillashgan. Ayniqsa, aholining aksariyat qismini yoshlar tashkil etgan Xitoy tajribasi bizning iqtisodiy-siyosiy institutlarimizga mos.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, ushbu mexanizm asosida amalga oshiriladigan dastur joriy etilsa, quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin:

- yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi sezilarli darajada kamayadi;
- mahalliy mehnat bozorida raqobatbardosh, kasbiy tayyorgarlikka ega yosh mutaxassislar soni ortadi;
- yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy faolligi va tadbirkorlik salohiyati rivojlanadi;
- hududlarda yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- davlat va jamiyat hayotida yoshlarning o'ri yanada mustahkamlanadi;
- xalqaro talablarga mos yosh kadrlarni tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

Yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash dasturi joriy etilishi bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Har bir viloyatda "Yoshlar bandligi yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va amalga oshirish yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasini ta'minlaydi, ularning ijtimoiy faolligini oshiradi va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Shu bois davlat idoralari, xususi sektor va jamoatchilik tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Faqat shunda yoshlar bandligi masalasi tizimli, barqaror va samarali yo'l bilan hal etilishi mumkin.

Yoshlar bandligini qo'llab-quvvatlash dasturini har bir hududda yoshlar bandligi uchun alohida "yo'l xaritasi" ishlab chiqish va bu orqali yoshlarning bandlik ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich oshirish imkoniyati sanaladi. Shuningdek,

hududlar kesimida mazkur yerlarda shakllangan yuqori daromad olib keluvchi sohalar mavjud va shu orqali iqtisodiyotni rivojlantirish choralari ko'rilmogda. Bunga doir Vazirlar Mahkamasining yuridik hujjati qabul qilingan, lekin bu normativ-huquqiy hujjatda aynan yoshlarning bandligini oshirishga qaratilgan ustuvor me'yorlar mavjud emas. Har bir viloyatda yuqori daromad olib keluvchi, yildan yilga talab yuqorilab borayotgan sohalarni aniqlab, ularni rivojlantirish uchun yoshlarni keng jalb qilish, ushbu sohalarga doir o'quv kurslarni samarali tashkil etish lozim. Chunki rivojlangan hududlardagi soha o'lkamizning boshqa istalgan hududlariga samarali ta'sir etmasligi mumkin. Chunki hududlarning ichki imkoniyatlari turfa xil.


Shularni inobatga olgan holda, "yo'l xaritasi" doirasida quyidagilarni amalga oshirish taklif etiladi:

- mahalliy mehnat bozorining hozirgi holatini tahlil qilish;
- talab yuqori bo'lgan kasblar ro'yxatini shakllantirish;
- shu kasblar bo'yicha qisqa muddatli kasb-hunar o'quv kurslarini tashkil etish;
- yoshlarni amaliyot va stajirovkalarga jalb etish orqali tajriba orttirish tizimini yo'lga qo'yish;
- hududiy korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda yoshlar bandligini oshirish bo'yicha uch tomonlama kelishuvlar imzolash;
- har bir hududda yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha alohida media-reja ishlab chiqib, yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlash;
- hududlarda amalga oshirilayotgan ishlarining ijrosi va samaradorligini doimiy kuzatish hamda baholashga mo'ljallangan yagona raqamli monitoring ekotizimini yaratish, unga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish orqali inson omili, korrupsiya xavfi va ortiqcha byurokratik tartib-taomillarni kamaytirish;
- har bir hududdagi talab yuqori sohalaridan kelib chiqib "ma'lum sohaga ixtisoslashgan" hududlarni yaratish.

Bu ishlarga birdek mas'ul organ sifatida yoshlar ishlari agentligi hamda mahalliy hokimiyat organlarini doimiy integratsiyada bo'lishini ta'minlash, har bir hududdagi mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha raqobat muhitini shakllantirish nazarda tutiladi.

REFERENCES

- Bell, D. N. F., & Blanchflower, D. G. (2011). Young people and the Great Recession. *Oxford Review of Economic Policy*, 27(2), 241–267.
- Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2017, April 10). *On measures for the organization of activities in free economic zones (Resolution No. 196)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3159981>
- Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. (2025, February 11). *On measures for creating additional conditions to enhance the effectiveness of working with youth, for the realization of their talents, and for the substantive organization of leisure in the Bukhara region (Resolution No. 79)*. Lex.uz. <https://www.lex.uz/docs/7384587>
- China Development Research Foundation. (2022). *Local government role in youth employment*. In *Youth of China in the new era*. Beijing Publ.
- Eurofound. (2007). *Contribution to EIRO thematic feature on youth and work - Case of Italy*. European Foundation for the Improvement of Living and Working Conditions. <https://www.eurofound.europa.eu/en/publications/2007/youth-and-work-case-italy>
- European Commission. (2020). *Reinforced youth guarantee: Council recommendation*. Publications Office of the European Union. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32020H1104%2801%29>
- European Social Fund. (2025). *Youth employment initiative leavers survey report 2021-2023*. UK Department for Work and Pensions. <https://www.gov.uk/government/publications/youth-employment-initiative-leavers-survey>
- Institute for Employment Studies. (2026, January). *Labour market statistics*.
- Ismoilov, T. I. (2021). *O'zbekistonda uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi* [Social activity of unorganized youth in Uzbekistan]. Lesson press.
- Japan Institute for Labour Policy and Training. (2022). *Youth employment measures in Japan*. JILPT Research Report.
- Kirnitsky, V. V. (2016). *Problema formirovaniya patrioticheskikh tsennostey v massovom soznanii rossiyskoy molodezhi* [The problem of forming patriotic values in the mass consciousness of Russian youth] [Doctoral dissertation]. Dissercat.
- London Councils. (2024). *Breaking barriers: Addressing youth unemployment in London*. <https://www.londoncouncils.gov.uk/news-and-press-releases/2024/breaking-barriers-addressing-youth-unemployment-london>
- Ministry of Health, Labour and Welfare of Japan. (n.d.). *Hello work system and youth support stations*. <https://www.mhlw.go.jp/english/>
- Ministry of Labour and Social Policies of Italy. (2019). *Youth employment initiative: Regional implementation plans*. https://docs.yandex.uz/docs/view?tm=1770098750&tld=uz&lang=en&name=Italy_2019.pdf
- Naamat, A., & Zlotnik, D. (2021). *Youth parliament project summary*. Haruv Children's Campus, Hebrew University of Jerusalem.
- National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026, April 20). *Number of unemployed*. Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
- OECD. (2014). *The local implementation of youth guarantees: Emerging lessons from European experiences*. OECD Publ.
- OECD. (2016). *Investing in youth: Lithuania*. OECD Publ.
- President of the Republic of Uzbekistan. (2019, January 8). *On additional measures for the further improvement of the activities of sectors for comprehensive socio-economic development of regions (Resolution No. RP-4102)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-4149608>
- President of the Republic of Uzbekistan. (2025, December 26). *Address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan*. President.uz. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
- Republic of Uzbekistan. (2023). *Constitution of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-6445145>
- Sen, A. (1999). *Development as freedom*. Oxford University Press.
- Sharifkhodjaev, M. (2003). *O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi* [Formation of an open civil society in Uzbekistan] (pp. 308–309). Sharq Publ.
- State Council of the People's Republic of China. (2023). *Measures to promote youth employment*. State Council Gazette.
- The Knesset. (2019). *National youth and children's parliament: Structure and functions*. Knesset Research and Information Center.



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 4-SON

VOLUME 6 / ISSUE 4 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.4>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>